



UzGasTrade

100007, Toshkent sh., Mirzo Ulug‘bek t.,

Mirzo Ulug‘bek ko‘chasi 32-a uy.

Tel.: (+99855) 506-05-06

www.uzgastrade.uz,

info@uzgastrade.uz,

uzgastrade@exat.uz

01-16-1064 -son

2026 yil «30» aprel

O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligiga

“UzGasTrade” aksiyadorlik jamiyati, Sizning 14-mart 2026-yildagi 03-09/2378-sonli xatingizda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 21-apreldagi PF- 71-son Farmoni bilan tasdiqlangan Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha milliy kengashning 2025-yil 5-martda o‘tkazilgan kengaytirilgan yig‘ilishida belgilangan topshiriqlar ijrosini ta‘minlash bo‘yicha amaliy chora-tadbirlar dasturining 24.2-bandiga muvofiq hamda 2025-yil 30-dekabrdagi “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF-270-son Farmon talablariga muvofiq buyruq va yo‘riqnoma ishlab chiqib Agentlikga taqdim etilishi belgilangan.

Mazkur topshiriq ijrosi yuzasidan jamiyat tomonidan yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan farmon talablariga asosan Asosiy vositalar xaridini ichki audit xizmati va komplayens nazorati xulosalari asosida amalga oshirish tartibini joriy etish to‘g‘risida buyruq va Asosiy vositalar xaridini amalga oshirish tartibi to‘g‘risida yo‘riqnoma ishlab chiqildi.

Ilova: *Asosiy vositalar xaridini ichki audit xizmati va komplayens nazorati xulosalari asosida amalga oshirish tartibini joriy etish to‘g‘risida buyruq. Asosiy vositalar xaridini amalga oshirish tartibi to‘g‘risida yo‘riqnoma.*

Boshqaruv raisi

A.T. Agzamov

Bajardi: J. Tashpulatov

(55- 506-05-06 (210))

Tel: 98-300-14-00



UZGASTRADE AKSIYADORLIK JAMIYATI BUYRUQ

“30” aprel 2026 yil. 92-um - son

Toshkent sh.

Asosiy vositalar xaridini ichki audit xizmati va komplayens nazorati xulosalari asosida amalga oshirish tartibini joriy etish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 21-apreldagi PF-71-son Farmon bilan tasdiqlangan Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha milliy kengashning 2025-yil 5-martda o‘tkazilgan kengaytirilgan yig‘ilishida belgilangan topshiriqlar ijrosini ta‘minlash bo‘yicha amaliy chora-tadbirlar dasturining 24.2-bandi, 2025-yil 30-dekabrdagi PF-270-son Farmoni ijrosini ta‘minlash, shuningdek “UzGasTrade” aksiyadorlik jamiyati (keyingi o‘rinlarda – Jamiyat)da Davlat xaridlari sohasida asosiy vositalar xaridining qonuniyligi, shaffofligi va asosliligini ta‘minlash maqsadida,

BUYURAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 21-apreldagi PF-71-son Farmon bilan tasdiqlangan Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha milliy kengashning 2025-yil 5-martda o‘tkazilgan kengaytirilgan yig‘ilishida belgilangan topshiriqlar ijrosini ta‘minlash bo‘yicha amaliy chora-tadbirlar dasturining 24.2-bandi va 2025-yil 30-dekabrdagi PF-270-son Farmon ma‘lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Farmonga muvofiq, Jamiyatda quyidagicha tartib joriy etilsin:

2.1. Jamiyat tomonidan amalga oshiriladigan barcha asosiy vositalar xaridi bo‘yicha xarid jarayonlari **ichki audit xizmati** hamda **komplayens nazoratining** majburiy xulosasini olish;

3. Jamiyatning asosiy vositalar xaridini ichki audit xizmati va komplayens nazorati xulosalari asosida amalga oshirish tartibi to‘g‘risida yo‘riqnoma ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Xarid jarayonida korrupsiyaviy xavflar yoki qonunbuzilish holatlari aniqlangan taqdirda, PF-270-son Farmon bilan berilgan vakolatdan foydalangan holda, xarid jarayonini to‘xtatish yoki kamchiliklarni bartaraf etish bo‘yicha **majburiy ko‘rsatmalar** kiritish amaliyoti qo‘llanilsin.

5. Komplayens nazorati bo‘limi (**S. Mirzamoydinov**) xarid jarayonlarida korrupsiya xavflarini muntazam tahlil qilib, Boshqaruv raisiga axborot kiritib borsin.


6. Ma'muriy-xo'jalik va moddiy ta'minot bo'limi (**S.To'ychiyev**) amalga oshirilayotgan xaridlarning reja-jadvalga muvofiqligi, ehtiyoj mavjudligi doimiy ravishda o'rganib borilsin.

7. Jamiyatning barcha tarkibiy bo'linmalari xaridlarni amalga oshirishda ushbu buyruq talablariga qat'iy rioya etsin.

8. Ijro nazorati va murojaatlar bilan ishlash bo'limi (**B. Nurmatov**) mazkur buyruqni Jamiyatning tegishli tarkibiy bo'linmalariga yetkazilishini ta'minlasin.

9. Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilishni o'z zimmamda qoldiraman.

Boshqaruv raisi



A. Agzamov

ASOSIY VOSITALAR XARIDINI AMALGA OSHIRISH

TARTIBI TO‘G‘RISIDA

YO‘RIQNOMA

1. Umumiy qoidalar

1.1. Ushbu Yo‘riqnoma tashkilotda asosiy vositalar xaridini qonuniylik, shaffoflik, iqtisodiy samaradorlik va korrupsiya xavflarini oldini olish tamoyillari asosida tashkil etish tartibini belgilaydi.

1.2. Yo‘riqnoma talablari tashkilotning barcha tarkibiy bo‘linmalari, mansabdor shaxslari va xarid jarayonida ishtirok etuvchi mas‘ul xodimlar uchun majburiy hisoblanadi.

1.3. Mazkur Yo‘riqnoma O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-dekabrda “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF-270-son Farmoni hamda O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 22-aprelda “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi O‘RQ-684-son Qonuniga muvofiq ishlab chiqilgan.

1.4. Quyidagilar asosiy vositalar deb hisoblanadi:

- kompyuter va orgtexnika;
- server va tarmoq uskunalari;
- mebel va ofis jihozlari;
- transport vositalari;
- ishlab chiqarish va texnik uskunalar;
- qiymati va xizmat muddati bo‘yicha amaldagi talablarga javob beradigan boshqa mol-mulklar.

2. Asosiy maqsadlar

2.1. Asosiy vositalar xaridida mablag‘lardan samarali foydalanish.

2.2. Noqonuniy va asossiz xaridlarni oldini olish.

2.3. Manfaatlarni to‘qnashuvi va korrupsiya xavflarini oldini qilish.

2.4. Xarid jarayonlarining ochiqligi va hisobdorligini ta‘minlash.

3. Xaridni boshlash tartibi

3.1. Xarid tashabbuskor bo'linma tashkilot rahbariyati nomiga xizmat xati kiritadi.

3.2. Xizmat xatiga quyidagilar ilova qilinadi:

- xarid zarurati asosnomasi;
- texnik topshiriq yoki texnik tavsif;
- kamida uchta bozor taklifi (*imkon bo'lsa*);

3.3. To'liq bo'lmagan hujjatlar ko'rib chiqilmaydi va tashabbuskorga qaytariladi.

4. Xarid qilish tartib-taomillari turlari

Asosiy vositaning qiymatiga qarab quyidagi usullardan biri tanlanadi:

- **Elektron do'kon:** Kichik qiymatdagi standart asosiy vositalar uchun.
- **Boshlang'ich narxni pasaytirish bo'yicha auksion:** Standart xususiyatga ega va faqat narx mezoni muhim bo'lgan tovarlar uchun.
- **Eng yaxshi takliflarni tanlash:** Texnik va sifat ko'rsatkichlari muhim bo'lganda (masalan, maxsus texnika).
- **Tender:** Yuqori qiymatli (byudjet buyurtmachilari uchun 6 000 BHMdan, korporativlar uchun 25 000 BHMdan yuqori) murakkab xaridlar uchun.
- **To'g'ridan-to'g'ri shartnoma:** Faqat qonunchilikda belgilangan alohida hollarda.

5. Xaridni amalga oshirish bosqichlari

- Xarid turiga qarab belgilangan muddatlarda uzex.uz portalida e'lon joylashtirish.
- Komissiya tomonidan o'z huquq va majburiyatlari hamda vakolatlari doirasida ishtirokchilarning malaka talablari va texnik takliflarini ko'rib chiqish.
- Eng maqbul taklif egasi g'olib deb topiladi va bayonnoma rasmiylashtiriladi.
- Tizim orqali elektron shartnoma imzolanadi va asosiy vosita qabul qilib olinadi.

6. Xaridni amalga oshirish jarayonida quyidagilar taqiqlanadi:

- ichki audit xizmati va komplayens nazorati xulosasiz shartnoma tuzish;
- ichki audit xizmati va komplayens nazorati xulosasiz to'lov amalga oshirish;
- sun'iy ravishda xarid summasini bo'lib chiqish;
- bir shaxs manfaati uchun texnik talab qo'yish.

7. Nazorat va javobgarlik

• Manfaatlarni to'qnashuviga yo'l qo'yilmaydi; xarid ishtirokchisiga aloqador shaxslar komissiya tarkibidan chiqariladi;

• Mazkur Yo'riqnoma talablarini buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda javobgar bo'ladi;

• Asossiz xarid yoki yashirin kelishuv aniqlanganda xizmat tekshiruvi tayinlanadi.

• Ma'muriy-xo'jalik va moddiy ta'minot bo'limi xarid bo'yicha yuzaga kelishi mumkin bo'lgan operatsion va ijro riski(bu xarid jarayonini amalga oshirishdagi tashkiliy, texnik va ijro xatolari natijasida moliyaviy yo'qotish yoki samarasizlik yuzaga kelish ehtimol)lar uchun mas'ul hisoblanadi.

8. Yakuniy qoidalar

8.1. Mazkur Yo'riqnoma rahbar tomonidan tasdiqlangan kundan kuchga kiradi.

8.2. Yo'riqnomaga o'zgartirish va qo'shimchalar belgilangan tartibda kiritiladi.